

TALABALARNI O'QITISHDAGI INNOVASIYALAR VA ILG'OR XORIJUY TAJRIBALAR

*Samarqand viloyati Urgut tuman MMTBga qarashli 63- umumta'lim maktabining
2-toifali jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi
Maxmudov Ozod Rabbimovich*

Anatatsiya: *Mamlakatimizning oliy talim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizasiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovasiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlan-tirish muhim vazifalardan sanaladi.*

Kalit so'zlar: *Fan va texnika, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'quv adabiyotlari, talimdagи o'zgarishlar*

Аннотация: *Модернизация образовательного процесса в высших учебных заведениях нашей страны, развитие профессиональной компетентности преподавателей в повышении качественного уровня системы подготовки педагогов, вооружении их современными профессиональными знаниями, квалификацией и навыками в данной области, самостоятельно. Важными задачами считаются научно-технические инновации, творческое использование и развитие способности решать перспективные задачи.*

Ключевые слова: *Наука и техника, педагогические технологии, современная учебная литература, изменения в образовании.*

Annotation: *Modernization of the educational process in higher educational institutions of our country, development of the professional competence of teachers in increasing the quality level of the teacher training system, equipping them with modern professional knowledge, qualifications and skills in this field, independently. Scientific and technical innovations, creative use and development are considered important tasks ability to solve promising problems.*

Key words: *Science and technology, educational technologies, modern educational literature, changes in education.*

O'zbekistonda talim tizimining asosiy talim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzlusizligini taminlash; oliy talimda o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv-uslubiy majmualar sifatini taminlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy talimning axborot-resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan taxminotini yanada rivojlantirish; mazkur yo'nalishlarda ilg'or xorijiy

tajribalarni o'rganish oliv talim muassasalari, xususan, pedagog kadrlarining faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi.

Jamiyat o'zining tez va chuqur o'zgaruvchan tavsifiga ega bo'lib, bunday o'zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar ta'lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o'z tuzilishi va faoliyat mazmunini o'zgartirishi zarur.

Ta'larning jamiyat rivojlanish suratlaridan ortda qolayotganligi, talim jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalarning zamонавија талабларга то'лиқ javob bermasligi haqidagi masala dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez extirof etilmoqda. Chunki talim ham ijtimoiylashtirish vazifasini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o'zgarishlar ortidan borishi hamda uning rivojlanishiga o'z tasirini o'tkazishi kerak. Biroq jamiyat rivojlanishi va talim tizimi o'rtasidagi munosabat murakkab ko'rinishga ega bo'lib, yuqori darajadagi jo'shqinlik bilan farqlanadi. Ta'limga barcha faol va sust o'zgarishlar tasirini qabul qilavermaydi, jamiyatda bo'layotgan voqyealarga esa o'z tasirini o'tkazadi. Ana shu nuqtai nazardan talimdagi o'zgarishlar faqatgina natija sifatida emas, balki jamiyatning kelgusidagi o'ziga xos rivojlanish shartidir.

Malumki, fan va texnika jadal surxatlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushunchalar va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomonidan, fan-texnikaning yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini taxminlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, fanlar orasida integrasiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investisiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun talimning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohasi – innovasion pedagogika jadallik bilan rivojlanib bormoqda.

Talim tizimida innovasion talimning asosiy maqsadi talim oluvchilarda kelajakkha masuliyat hissini va o'z-o'ziga ishonchni shakllantirishdir. J.Botkin boshchiligidagi olimlar guruhi "Rim klubii" maruzasida innovasion talimni ananaviy, yani "normativ" talimga muqobil sifatida bilimlarni egallahni asosiy turi sifatida tavsifladi. Normativli talim "takrorlanuvchi vaziyatlarda faoliyat xulq-atvor qoidalari o'zlashtirishga yo'naltirilgan" bo'lsa, innovasion talim yangi vaziyatlarda birgalikda harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Innovasion faoliyat mazmuni va uning maqsadi. Talim sifatini taminlash-bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajsi bilan birga o'quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko'rindi.

Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va meyoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning

ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ko'rsatma va tamoyillar ko'rinishida o'z aksini topgan.

Shu bois, hozirgi davrda talim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovation faoliyatga yo'naltirish, oliy talim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovation talim va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy talim tizimini modernizasiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Oliy talim tizimini modernizasiyalash (engl. modern – yangilangan, zamonaviy, tezkor o'sish) talim jarayoniga nisbatan innovation yondashuvni talab etadi. Globallashuv jarayonlarida talimga innovation yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati. Hozirgi globallashuv jarayonlarida talimga innovation yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz talim tizimi, xususan, oliy talim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, talimdagi innovation yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2. Talaba-yoshlardagi malumotlilik darjasini, intelektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

3. Pedagogik innovasiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nis-batan o'qituvchining kasbiy-innovation kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Darhaqiqat, talimga innovation (inglizcha innovation-yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi talim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, talim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan ananaviy yondashuvdan farq qiladi.

Innovation jarayonlarning kechishi. Hozirgi davr talim taraqqiyoti yangi yo'nalish-innovation pedagogikani maydonga olib chiqli. «Innovation pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda, 60-yillarda paydo bo'ldi.

Innovation faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzg'mina, V.A.Slastenin, A.I.Shcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovation faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan.

X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovation jarayonlarni boshqarish, talimdagi o'zgarishlarni tashkil

etish, innovasiyaning «hayoti va faoliyati» uchun zarur bo’lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil kilingan.

Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo’lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Oliy mакtab o’qituvchisining innovation faoliyati oliy mакtab pedagogikasining bosh muammolaridan biridir. Innovasiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir.

A.I.Prigojin innovasiya deganda, muayyan ijtimoiy birlikka-tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg’un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o’zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Tadqiqotchilar (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiyezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovation jarayonlar tarkibiy qismlarini o’rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o’zaro tasirining mikrosathi.

Birinchi yondashuvda, hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g’oya yoritiladi.

Ikkinci yondashuvda, alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o’zaro tasiri, ularning birligi, raqobati va natijada birining o’rnini ikkinchisi egallashidir. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o’lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovasiya jarayonning sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g’oya tug’ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyat bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, yani yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo’llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tatbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o’zining yangiligini yo’qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo’ladi.

6. Yangi muqobililik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo’llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo’nal-tirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalari bilan qondirish deb biladi.

XULOSA.

Xulasa qilib shuni aytishimiz mumkinki bugungi kunda zomon shiddat bilan rivojlanib boroyotgan bir payitda talim va tarbiyaga bo’lgan etibor yanada kuchayib bormoqda kelajak avlodni bilimli, aqilli, va zukko bulib etishishida yurtboshimiz takidlaganidek bilimga chanqoq, zukko yoshlar yurtimiz kelajagi deb bejizga takidlamagan bugungi kun yoshlari bilim soxasida, sport soxasida, talim tarbiyada ham

yitakchi o'rinda turibdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ta'limga innovation (inglizcha innovation-yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, talim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirish bilan ananaviy yondashuvdan farq qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev.-Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. Xalq so'zi[], 2018 yil 8 dekabr. 253-son.
2. Bolajon Davlat dasturi. T.: 2010.
3. Barkamol avlod orzusi. T.: "O'zbekiston" 1998.
4. Bu muqaddas vatanda azizdir inson. T.: "G'.G'ulom", 2010.
5. Keneman A.V., Xuxlaeva D.V. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi va metodikasi. -T.: O'qituvchi, 1988.
6. Maxkamjonov K.M. "Xarakat go'zallik va salomatlik garovi". -T.: 2002.
7. Maxkamjonov K.M., Tulenova X. Farzandlarimiz sog'lom bo'lishini istasangiz.
8. Usmonov M. T. Establish Network Protection. International Journal of Academic Engineering Research (IJAER) ISSN: 2643-9085 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 14-21.
9. Usmonov M. T. Fundamentals of Symmetric Cryptosystem. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR) ISSN: 2643-9603 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 36-40.
10. Usmonov M. T. General Concepts of Mathematics. International Journal of Academic Information Systems Research (IJAIR) ISSN: 2643-9026 Vol. 5 Issue 1, January -2021, Pages: 14-16.
11. Usmonov M. T. Identification and Authentication. International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR) ISSN: 2643-9123 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 39-47.
12. Usmonov M. T. Information Protection and Its Types. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR) ISSN: 2643-9603 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 1-4.